

Date: 3rd December-2025

YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYADA
YOSH DAVRLARINI TABAQALASH MUAMMOLARI

Xongeldiyeva Dildora Shuxratovna

Termiz davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi

dildoraxongeldiyeva@gmail.com

+998 91 798 95 25

Annotatsiya: Maqolada yosh davrlari psixologiyasi hamda pedagogik psixologiyada yosh davrlarini tabaqalash muammolari tahlil qilinadi. Inson shaxsining rivojlanishi uzluksiz jarayon bo'lib, uni turli yosh bosqichlariga ajratish ilmiy va pedagogik jihatdan katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Maqolada yoshni aniqlash mezonlari, biologik, ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro ta'siri, har bir davrning o'ziga xos psixik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, turli olimlarning yosh davrlarini tasniflash qarashlari solishtirilib, tabaqalashdagi muammoli jihatlar tahlil qilingan. Maqola natijalari pedagogik amaliyotda yoshga mos metodlarni tanlash, shaxsning individual imkoniyatlarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, yosh davrlari, rivojlanish bosqichlari, tabaqalash muammolari, shaxs rivojlanishi, individual yondashuv, psixik jarayonlar, ta'lim-tarbiya, bolalik, o'smirlik, yetuklik, psixologik xususiyatlar, ta'lim samaradorligi.

Kirish: Psixologiya fanida yosh davrlarni tabaqalash bo'yicha turlicha usullar mavjud hisoblanadi. Bilamizki, har bir davr o'zining muhim sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat funksiyalari, xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi.

Yosh davrlari inson shaxsining rivojlanishidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Har bir yosh davri biologik, psixologik va ijtimoiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu xususiyatlarni to'g'ri aniqlash va pedagogik amaliyotda hisobga olish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, pedagogik psixologiyada yosh davrlarini tabaqalash va tasniflash masalasi dolzarb mavzu hisoblanadi. Agar pedagog bu jarayonda o'quvchining individual imkoniyatlarini inobatga olmasa, ta'lim samarasi sezilarli darajada pasayadi.

Shaxsiy fikrim shuki, har bir bola yoki o'smirning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda yondashilsa, ular ta'lim jarayonida nafaqat bilimni yaxshiroq egallaydilar, balki o'zini ijtimoiy va hissiy jihatdan ham rivojlantiradilar. Shuningdek, yosh davrlarini noto'g'ri tabaqalash yoki bir xil metodlarni hamma uchun qo'llash o'quvchilarda qiziqishning kamayishiga, o'zini yetarlicha namoyon eta olmasligiga olib keladi. Shu sababdan, bu mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham juda muhim hisoblanadi.

Yosh davrlarining psixologik xususiyatlar:



Date: 3rd December-2025

Bolalik davri shaxsning asosiy psixologik va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradigan davrdir. Shu davrda bolaning hissiyati, tafakkuri, ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi va ular o'yin orqali o'zlashtiriladi. Shaxsiy kuzatishim bo'yicha, bolalar bilan ishlashda ularning individual qiziqishlariga mos metodlarni tanlash juda samarali natija beradi. O'smirlik davri esa identifikatsiya, mustaqillik va shaxsiy o'ziga xoslikni rivojlantiradi. Shu davrda o'smir ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi, qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Menimcha, o'smirlarning mustaqil fikrlashga intilishi va qiziqishlariga mos yondashuv pedagogik jarayonni yanada qiziqarli qiladi va o'quvchilarning o'zini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Yetuklik bosqichi esa shaxsning mas'uliyatini oshirish, ijtimoiy munosabatlarni chuqur anglash va professional ko'nikmalarni egallash bilan tavsiflanadi. Shu bosqichda shaxsiy yondashuv muhim bo'lib, har bir o'quvchining imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Men o'zimning kuzatishlarimdan kelib chiqib aytishim mumkinki, yetuklik bosqichidagi talabalarni faqat bilim bilan cheklamasdan, ularning qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratish pedagogik samarani oshiradi.

2. Pedagogik psixologiyada tabaqalash muammolari va yechimlar

Muammo 1: Yosh davrlarini noto'g'ri tabaqalash → Yechim: aniq mezonlar asosida yoshlarni tasniflash.

Muammo 2: Individual yondashuv yetarli emas → Yechim: har bir o'quvchining qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olgan metodlar.

Muammo 3: Turli olimlar qarashlaridagi farqlar → Yechim: eng ma'qul va amaliyotga mos nazariy asoslarni tanlash[4].

Bu muammolarga e'tibor qaratish pedagogik jarayonni yanada samarali va qiziqarli qiladi, o'quvchilarning psixologik va kognitiv rivojlanishini rag'batlantiradi va ularni o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishga undaydi.

Xulosa. Yosh davrlarini psixologik va pedagogik nuqtai nazardan, tabaqalash shaxs rivojlanishini boshqarish va ta'lim samaradorligini oshirish uchun juda-juda muhim hisoblanadi. Chunki har bir yoshning rivojlanish sur'ati, dunyoqarashi, ehtiyojlari va qiziqishlari bir-biridan farq qiladi. Agar bu farqlar hisobga olinmasa, ta'lim samarasi pasayadi. Shuning uchun yosh bosqichlarini to'g'ri aniqlash o'qituvchi, psixolog va ot-onalar uchun ham juda muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir yosh davri o'ziga xos metod va yondashuvni talab qiladi. Menimcha, pedagogning vazifasi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishdir. Agar o'quvchilarning psixologik rivojlanishi, qiziqish va qobiliyatlari hisobga olinmasa, ta'lim samarasi sezilarli darajada kamayadi. Shu sababli, yosh davrlarini tabaqalashdagi muammolarni yechish uchun nazariy bilimlarni amaliyotga to'liq tatbiq etish zarur. Kelajakda bu yo'nalish bo'yicha yanada chuqur tadqiqotlar olib borish pedagogik psixologiya va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Men o'zim shaxsiy ravishda ham, har bir o'quvchining imkoniyatlarini inobatga olgan pedagogik yondashuvni qo'llash eng to'g'ri yo'l deb hisoblayman.



Date: 3rd December-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR/ REFERENCES:

1. Z.T. Nishonova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2018.600.
2. Sh.A. Do’stmuhammedova va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o‘quv-metodik qo‘llanma). Toshkent: TDPU, 2004.345.
3. E.G. G‘oziyev. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1994.360.
4. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.
5. Имонова, М. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ АБЮЗЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(5 Part 2), 56–59. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/31556>
6. Imonova, M., & Tojiyeva, D. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 950-952.
7. Imonova, M., & Muhammadova, D. (2024). TA‘LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNING USTUVORLIGI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 907-912.
8. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi–jamiyat faravonligi asosi. *Finland academic research science publisher*, 1148-1151.
9. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1399-1403.
10. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. *Journal of Discoveries in Applied and Natural Science*, 1(1), 62-67.